

BUXORO XONLIGI TARIXSHUNOSLIGINING O'RGANILISHI

*Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti
402-guruh talabasi Tilanova Madina Akbar qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro amirligining ma'daniy-marifiy , iqtisosiy , ijtimoiy-siyosiy hayotidagi yuksalish, o'zgarish va inqirozlar haqida o'sha davr tarixchilari tomonidan yozilgan va bugungi kungacha o'z tarixiy ahamiyatini yo'qotmagan asarlarni o'rganish borasida amalga oshirilgan tadqiqot ishlari borasida bugungi kun olim va tadqiqotchilarining fikr mulohazalar bayon etilgan.

Kirish: O`zbek xalqining asriy orzulari ham ro`yobga chiqqaniga chorak asrdan oshdi. Bugungi kunda O`zbekiston xalqi erk va ozodlik davrida hayot kechirmoqda. “Bugun O`zbekistonimiz bosib o'tgan mustaqil taraqqiyot yo'lini xolisona baholar ekanmiz, o'tgan davr mobaynida biz erishgan, dunyo jamoatchiligi tan olgan olamshumul yutuq va marralar, avvalambor izchil rivojlanayotgan iqtisodiyotimiz va uning barqaror o'sish sur'atlari, aholi farovonligining yildan yilga oshib, jahon hamjamiyatida mamlakatimiz obro'-e'tiborining tobora yuksalib borayotganligi – bularning barchasi Konstitutsiyamizning asosiga qo'yilgan, chuqur va puxta o'ylangan maqsad, prinsip va normalarning hayotbaxsh samarasi desak hech qanday mubolag'a bo'lmaydi”. Mustaqillikka erishganidan so'ng O`zbekiston o'tgan yigirma yetti yil ichida o'ta mashaqqatli va sharaflı yo'lni bosib o'tdi. Buni oldindan yaxshi bilgan O`zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimov ozodlikka erishgan dastlabki kunlarimizda “O'z istiqlol va taraqqiyot yo'limiz – bu gul bilan qoplangan yo'l emas, bu totalitarizm merosidan xalos bo'lish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyonzahmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo'lidir”, deb aytgan so'zlari zamirida qanchalik chuqur hayotiy ma'no borligini yana bir bor anglaymiz.

Buxoro xonligi XVIII asr o`rtalaridan va XX asrning 20 – yillarigacha yashagan O`rta Osiyoda mayjud bo`lgan uchta yirik xonliklardan biridir. Buxoro hukmdorlari O`rta Osiyodagi boshqa hukmdorlarga nisbatan mashhur va qudratli edilar. Bunga asosiy sabab sifatida davlat boshqaruvi an`analarini har bir hukmdor doimo davrida yangilanib borganligi, xonlarning davlat boshqaruvidagi o'rni benihoya ulkanligi bilan baholanadi. Buxoro hukmdorlarining barchasi haqida bunday fikr bildirish to`g`ri emasdir, ammo xonlik qudratini boshlab bergen xodisa ham, davlat taraqqiyotining asosi ham hukmdorning shaxsiy fazilati edi. Buning natijasida mamlakat siyosiy, harbiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalgan. Buxoro xonligi aholisining farovonligi oshgan. Abdullaxon II, Imomqulixon, Shohmurod, Amir Nasrullo hukmronlik davrida boshqaruv, pul va harbiy sohalarda ko`plab isloxoxtlar o`tkazdiki

ular mamlakat taraqqiyotiga o`z ta`sirini o`tkazdi. Buxoro hukmdorlari, ularning tarixiy shaxsiga baho berish maqsadida ular haqida bugungi kunga qadar ko`plab tadqiqotlar yaratilgan. Ayniqla, mustamlaka davri adabiyotlarida Buxoro hukmdorlari shaxsi qora bo`yoqlar orqali faqatgina tanqid ostiga olinib, go`yoki ular xech qanday tadbirni amalga oshira olmaydigan kaltabin, qonxo`r hukmdor sifatida tasvirlangan. Aslida ham sobiq sovet tuzumining tarixni qora ranglarda tasvirlashdan maqsadi ham, millatni o`zligini yo`qotish, uning ajdodlariga bo`lgan mehrini so`ndirishdan iborat edi Buxoro xonligi tarixi bo`yicha 1920-yilgacha yozilgan asar va maqolalarda, garchi bir tomonlama fikr va mulohazalar bildirilganligi, hamda o`sha davr Rossiya imperiyasi istilochilik kayfiyatini aks ettirgan bo`lishiga qaramay, mavzuni o`rganish borasidagi ahamiyati kattadir. Zero, tarixning jonli guvohi sifatida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda bevosa ishtirok etgan mualliflar asarlari Buxoro xonligi tarixi haqida ayrim qimmatli ma`lumotlar bera oladi. Buxoro xonligida XVI ast ikkinchi yarmida Abdullaxon II ning taxtga o'tirishi va ko`plab hududlarni birlashtrib yagona markazlashgan davlatga asos solishi natijasida ilm-fan rivoji uchun qulay muhit shakillandi. Natijada, tarixnavislik ilmi rivojlanib, ko`plab tarixiy asarlar yaratila boshlandi. Kamoliddin Binoiyning "Shayboniynoma" asari XVI asr Buxoro tarixiga oid muhim manba hisoblanadi. Mazkur asar qo`lyozmasining qimmatli nusxasi O'zbekiston FA Shargshunoslik institutida saqlanmoqda. Sharqshunos A.Mirzayevning fikricha, Binoi 857 (1453)-yilda tug'ilgan Binoiyning zamondoshlari Navoiy, Bobur, Xondamir va boshqalar uning iste'dodi xususida juda yashi fikrlar bildirgan edi. "Shayboniynoma" fors tilida bitilgan she'riy doston bo'lib, uning muallifi atoqli shoir va tarixnavis olim Kamoliddin Binoiydir. O'rta Osiyo, Qozog'iston va qo'shni mamlakatlarning XVI asidagi tarixi bo`yicha asosiy manbalardan yana biri "Sharafnomayi shohiy" yoki "Abdullanoma" dir. Asar Shayboniy Abdullaxon II ning topshing'i bilan 1584-1590-yillarda yozilgan. Muallif zamon taqozosiga ko'ra, asarda ma'lum darajada hukmon tabaqaning maqsad va manfatlarini ifoda qilishga harakat qilgan xon va uning atrofidagi amaldorlarni boylar va no'yonlarni ko'klarga ko'tarib maqtagan, mehnatkash xalqning ahvoli esa e'tibordan chetda qolgan. Lekin, ushbu asar faktik materiallarga boy, voqealar ma'lum darajada ob'yektiv yoritilgan, ayrim hollarda xonlar, sultonlar va amirlarning ba'zi xislatlari hamda xarakter ham ochib berilgan. "Abdullanoma" yok "Shara fnomayi Shohy" asarining muallifi Hofiz Tanish Buxoriydir. Mazkur asar muqaddima, ikki qism va xotimadan iborat bolib, o'rta asr an'analariga xos tartibda yozilgan. Asarda Abdullaxon shajarasi, qadimda Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan qavmlar tavsifi, Chingizzon va uning avlodlari haqida ma'lumotlar, Movarounahrda 1533-1583-yillarda sodir bo`lgan voqealar, Abdullaxonning oliyjanob fazilatlari, ushbu darvida faoliyat olib borgan shayxlar, olimlar, shoirlar, vazirlar hamda o'sha paytda qurilgan turli binolar haqida ma'lumotlar mavjud. Hofiz Tanish Buxoriyning ushbu asarida. Movarounnahr va uning hududlari,

shuningdek, janubiy Turkistonda XVI asida istiqomat qilgan turk- mo'g'ul qabilalar jaloir, nayman, qarluq, qipchoq, qatag 'on, o'tarchi, beshyuz, shaqqoqi, qulon-oyoni, keront olchin, ming, bahrin, uyg'ur, qang‘li, qo'ng'irot dormon, qoshchi, mojor, uyshun, chashmu, abru, bo'lachi, arg'im, yobu, kenagas, mang it, tubai, nukuz, qiyot boshgird kabilar hagida ham muhim malumotlar keltiriladil?. Bu davrda yozilgan yana bir yirik asar bu "Sharafnomayi shohiy" tarixiy asar bo‘lishi bilan birga, XV-XVI aslarga xos badlyly asar hamdir. Asar muallifning o'limi sababli tugallanmay qolgan. Asarning katta qismini 1983-yilda M. Salohiddinova ruscha tarjimasi bilan nashr ettingan. Kitob 1942-1952-yillarda Sodiq Mirzayev va hozirgi qismi Yu.Hakimjonov tomonidan 60-yillarda o'zbek tiliga tarjima qilinib, 1-2 jildlan, zarur tuzatishlar, tadqiqot va izohlar bilan 1966 va 1969-yillari B. Ahmedov 1167 tomonidan chop qilingan. 1995-1997-yillari ikki kitob holida B. Ahmedov tomonidan nashr etil di. Xullas, "Sharafnomayi shohiy" yirik asar bo'lib, tarixiy ahamiyati jihatidan Juvayniyning "Tarixi jaxonkushoy" va Rashiddidining "Jome' at -tavorix" asarlar qatorida turadi. Ushbu asarni ilmiy muomalaga kiritilishi avvalo, V.V.Velyaminov-Zernovga tegishli bo'lib, keyinchalik uni o'rganish bilan L.A. Zimin, I.Umnyakov, M.Salohiddinova, P. Ivanov, N. Sayiyev, ingliz olimlari va boshqalar shug'ullangan". Buxoro xonligining XVII asga oid tarixini yorituvchi tarixiy asarlardan biri "Baxr ul-asrordir". Mazkur asar qomusiy xarakterga ega bo'lib, o'rta asr fanning ilmi mujmui, javohirshunoslik, o'simlikshunoslik, geografiya va tarix sohalarini o'z ichiga oladi hamda Ashtarxoniyalar hukdon Nodir Muhammadxon topshirig'iga binoan yozilgan. Asar muallifi, saroy kitobdon yirik olim va shoir Muhammad ibn Vali bolib, uni Amir Xalotiy Kosoniy ham deb ataganlar.

Xulosa: XVI-XVIII asrning birinchi yarmi manbalarning rangbarangligi, ko'pligi bilan ajralsa, XVIII asr oxiri-XIX asr birinchi yarmiga tarixiy manbalarning ozligi xosdir. Shunday qilib, O'rta Osiyoning XVI asr-XIX asrning birinchi yarmidagi tarixini yoritgan tarixiy asarlarning barchasida o'xshash kamchilik bor. Mualliflar shohlar va ularning atroflaridagi amaldorlarga xushomad qilib, voqealarni tejab yozadilar, ko'z oldilarida yuz bergen voqealar mohiyatiga chuqr kirib bora olmaydilar. Oqibatda xalq noroziligi, ularning ko'tarilishlari sabablarini, siyosiy hayotning asl qiyofasini to'g'ri yorita olmaydilar. Ular ham feodalizm tarixchilariga xos bo'lgan o'ta an'anaviy madhiyabozlikdan qutila olmaganlar. Ammo bunday nuqsonlar Sovet davri tarixchiligidagi ham uchraydi. Shunga qaramay, yuqoridagi asarlar o'sha davrlar tarixiy voqealarini o'rganishda qimmatli ilmiy manbalar hisoblanadi

Foydalilanilgan adabiyotlar

1. A.A.Erqo'ziyev. Buxoro xonligi tarixi (*o'quv qollanma*). – Namangan, 2018. – 200 b.

2. Alimov I. O‘zbekistonda vaqf mulklarining tugatilishi tarixi (1917–1929 y.). –T.: Fan, 2009.
3. Bobojonova D. O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70- 80 yillar misolida). Qo‘llanma. – Toshkent.: Sharq, 1999.
4. Abdullaev M. Abdullaev A. «Ma`naviyat va madaniyat tarixi». Farg’ona. 1998y